CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Ped.82.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO’JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

XADJIBEKOV SADRIDDIN NASRIDDINOVICH

TEXNIKA OLIY TA`LIM MUASSASALARI TALABALARIDA INTELLEKTUAL QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISH JARAYONINI LOYIHALASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)

Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Chirchiq – 2023

UDK: 378.015.31:54

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc)
Contents of the abstract of doctoral dissertation (DSc)

Hadjibekov Sadriddin Nasriddinovich
Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarida intelektual qobiliyatni rivojlantirish jarayonini loyihalashtirishning ilmiy metodik asoslari…...5

Хаджибеков Садриддин Насриддинович
Научно-методические основы проектирования процесса развития интеллектуальных способностей студентов технических вузов.....29

Xadjibekov Sadriddin Nasriddinovich
Scientific and methodological foundations of designing the process of developing the students’s intellectual abilities of technical universities....51

E’lon qilingan ishlar ro’yxati
Список опубликованных работ
List of published works……..54

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Ped.82.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO’JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

XADJIBEKOV SADRIDDIN NASRIDDINOVICH

TEXNIKA OLIY TA`LIM MUASSASALARI TALABALARIDA INTELLEKTUAL QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISH JARAYONINI LOYIHALASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)

Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Chirchiq – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.DSc/Ped455 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi “TIQXMMI” milliy tadqiqot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Ismailova Zuhra Karabayevna** pedagogika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Nizamova Saida Adilovna** pedagogika fanlari doktori
	Mirxamitova Dilorom Xudayberdiyevna kimyo fanlari doktori, professor
	Abduraxmonov Eldor Baratovich kimyo fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	**Guliston Davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil “___”_kuni soat dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-
45-41; ye-mail: chdpi-kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universiteting Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111720, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “_____”_____kuni tarqatildi.

(2023 yil “_____”_____dagi_____raqamli ryestr bayonnomasi).

J.E.Usarov
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

D.M.Maxmudova
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, p.f.d. professor

R.A.Eshchanov
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, b.f.d., professor

KIRISH (pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ta’lim jarayoni, taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib kelinmoqda. 2030 yilgacha belgilangan barqaror taraqqiyot ta’limi konsepsiyasida “Butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Bu esa o‘z navbatida kimyo fanini chuqur biladigan va uni tajribada qo‘llay oladigan muhandislarni tayyorlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda ta’lim tizimi ishlab chiqarishdan ancha orqada qolib ketmoqda va bitiruvchilarning kasbiy tayyogarligining yetarli emasligi kuzatilmoqda. Shu sababli texnik oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishning zamonaviy usullaridan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish, talabalarda intellektual qobiliyatni rivojlantirish jarayonini loyihalashning ilmiy- metodik asoslarini ishlab chiqish zaruratini taqozo etmoqda.

Dunyoda kimyo fanini o‘qitishda mustaqil ta’limni samarali tashkil etish, texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarida intellektual qobiliyatni rivojlantirish jarayonini loyihalashning ilmiy- metodik asoslarini ishlab chiqish etish muhim sanaladi. Jumladan, jahonning eng ilg‘or universitetlari va innovatsion ta’-lim markazlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (e-learning platforms: Moodle, Ilias, Dokeos va boshqalar) va dasturlari vositasida kimyo fanini o‘qitish sifati va samaradorligini oshirish, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini loyihalashing metodologik imkoniyatlarini ochib berish, metodologik tizim modelini ishlab chiqish, intellektual qobiliyatlar va fikrlash metodologiyasini o‘zlashtirishning yaxlit jarayonini tashkil etish metodikasini ishlab chiqish, uslubiy-didaktik ta’minot mazmunini takomillashtirish, talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlanganlik darajalarini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda fan-texnika va texnologiyalarni rivojlantirish va jahon andozalari talablariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish hamda kimyo o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish alohida ta’kidlangan. Texnik oliy ta’lim muassasalarida kimyo fanini o‘qitishda elektron ta’lim resurslardan foydalanishning texnologiyalarini ishlab chiqish orqali ta’lim oluvchilarda kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini, xalqaro standartlar darajasida to‘liq shakllantirishning ilmiy asoslangan tizimini yaratish hamda, mustaqil ta’limni rivojlantirishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish” kabi muhim vazifalar belgilandi. Bu esa, texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarida intellektual qobiliyatni rivojlantirish jarayonini loyihalashning ilmiy- metodik asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 8 oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son

Farmonlari, 2018 yil 5 iyundagi «Oliy ta’lim muassalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, 2020 yil 27 fevraldagi «Pedagogik ta’lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son qarori, 2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida 2022 yil 12 maydagi № 4412 Farmonlarida ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg‘unligini ta’minlash orqali ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, xuquqiy, iqti-sodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ba-jarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarga ekologiya va tabiatni muhofaza qi-lish fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish bilan bog‘liq izlanishlar yuzasi-dan dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida olib borilmoqda.

Jumladan, talabalarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantiri-shning integrativ texnologiyalari mazmuni (Massachusets University (AQSH) ishlab chiqilgan; idrok qilishning vizual va audio vositalari orqali ta’lim oluvchilarning kasbiy shakllanishiga maqsadli kompleks ta’sir ko‘rsatish metodikasi (Institute named af-ter Frica Bauer, Germaniya) ishlab chiqilgan; o‘qitishning zamonaviy texnologiya-lari asosida bo‘lajak “Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish” fani o‘qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish tizimi (National Advice on peda-gogical technology, Angliya) yaratilgan; elektron qurilmalar bazasida elektron ta’lim resurslarini yaratish va amaliyotga joriy etish mexanizmi (Seoul Cyber Uni-versity, Janubiy Koreya) ishlab chiqilgan. O‘qitish jarayonida zamonaviy o‘qitish texnologiyalari asosida bo‘lajak mutaxassislarda ekologik madaniyat, ekologik kompetentlik shakllanishi va rivojlanishiga e’tibor qaratilgan.

Bugungi kunda jahonda ta’limning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ekologiya va tabiatni muxofaza qilish fanini o‘qitishning didaktik vositalarini takomillashtirish orqali ekologik madaniyatni shakllan-tirishga ustuvorlik berilmoqda. O‘qitishning zamonaviy didaktik mazmu-nini takomillashtirish va qo‘llash bo‘yicha konseptual loyihalashtirishga asoslangan yangi nazariy konsep-siyalarni ishlab chiqish; o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalaridan foydalanib ta’lim jarayonini tashkil etish metodikasini takomillashtirish; o‘qitishning axborot kommunikatsion texnologiyalarini yangi ilmiy-pedagogik yondashuvlar asosida takomil-lashtirish; zamonaviy o‘qitish vositalarining ta’lim jarayoni sifatiga ta’sirini baholash metodikasini ishlab chiqish; o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalari asosida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompententligini

shakllantirish; o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalaridan foydalanishning dasturiy-metodik ta’minotini yaratish.

AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Fransiya, Shvetsiya va boshqa mamlakatlarda olib borilgan Ekologik Ta’lim (ET) iqtisodiy tizimning bir qismi ekanligi Amabile T.M. Braus J.A., Michael Cole kabi olimlarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan. Ushbu manbalarda ekologiya so‘zi juda keng ma’noda ishlatilib, ekologiya fani tirik organizmlarning o‘zaro bog‘liqligi va ular yashaydigan muhiti o‘rtasida bog‘liqlik, insonni yashash muhiti, tabiatdan ratsional foydalanishini hamda tabiatni asrash kabi umumiy tushunchalar qo‘llanilgan. Ekologik ta’lim beriladigan hududiga qarab, o‘ziga xos tarzda shakllanishi Cropley A., Cropley D., Feinsinger P., Stamp N.E, Priest J.M., Braus J.A., Wood D. ishlarida berilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz olimlaridan N.A. Anvarova, M.K. Dimetova, A. Mavlyanov, S.A. Nizamova, N.S. Saidahmedov кимё darslarida, mustaqil ta’limini tashkil etish masalalari: X. Omonov, G.A. Pichugina, N.G‘. Raxmatullayev, X.M. Rajabov, P.S. Abdumuratov, M.M. Abdulxayeva, A. Abdusamatov, N.N. Azizxo‘jayeva va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

MDH olimlaridan B.G. Ananev, L.S. Vigotskiy, V.N. Drujinin, A.N. Leontev, A.R. Luria, Z.I. Kalmikova, V.A. Krutetskiy, V.G. Gorchakova, V.A.Kozireva, E.V.Krayevskiy, A.K.Markova, L.A.Petrovskaya, N.F.Rodionova, G.P.Shedrovitskiy va boshqalar tomonidan kimyo fanini o‘qitish orqali talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Xorijiy olimlardan Cropley A., Cropley D., Feinsinger P., Stamp N.E, Priest J.M., Braus J.A., Wood D va boshqalar texnika oliy ta’lim muassasalarida kimyo fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandistlari instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 1.16/2017«Получение некоторых дефолирующи активным веществ на основе беттохлор-этилфосфоновой кислоты и определение их физико-химических свойств» (2017-2019 yy.) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarida intellektual qobiliyatni kimyo fanini o‘qitish asosida rivojlantirish jarayonini loyihalashning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

texnika oliy ta’lim muassasalarida kimyo fanini o‘qitishda talabalarni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini loyihalashing metodologik imkoniyatlarini ochib berish;

texnika oliy ta’lim muassasalari talabalariga kimyo fanini o‘qitish orqali intellektual qobiliyatlarni rivojlantiruvchi yaxlit jarayonining metodologik tizim modelini ishlab chiqish;

talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, turli intellektual qobili-

yatlar va fikrlash metodologiyasini o‘zlashtirishning yaxlit jarayonini tashkil etish metodikasini ishlab chiqish;

texnika oliy ta’lim muassasalarida kimyoviy bilimlar tizimini rivojlantiruvchi tarixiy tajribani o‘z ichiga olgan uslubiy-didaktik ta’minot mazmunini takomillashtirish;

texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlanganlik darajalarini aniыlash, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob’ekti texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarida intellektual qobiliyatni kimyo fanini o‘qitish asosida rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarida intellektual qobiliyatni rivojlantirish jarayonini loyihalashning mazmuni, shakli, metod va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Psixologik, pedagogik, biologik, kimyoviy, tabiiy-ilmiy, umumkasbiy hamda ixtisoslik fanlariga doir adabiyotlarni tadqiqot muammosi va fanlararo uzviylik nuqtai nazaridan o‘rganish, tahlil qilish; muhandislik bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Davlat ta’lim standartlari (DTS)ning tahlili; biologiya va tabiiy-ilmiy, umumkasbiy hamda ixtisoslik fanlari bo‘yicha o‘quv, o‘quv-metodik adabiyotlar tahlili; texnika oliy ta’lim muassasalari tajribasini umumlashtirish; talabalar faoliyatini kuzatish, o‘qituvchilar bilan suhbat qilish; talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazish, pedagogik tajriba-sinovini olib borish va uning natijalarini matematik-statistika metodlari yordamida qayta ishlashni tashkil etishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarga kimyo fanini o‘qitish orqali intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning yaxlit jarayoni metodologiyasi umumijtimoiy muhitni modellashtirishning umumiydan yagonalikka va yagonalikdan chegaraviy umumiylikkacha yo‘naltiriltiruvchi falsafiy zanjirida individual kimyo o‘qitish maqsadiga o‘tishni adaptiv didaktikada ta’minlash asosida takomillashtirilgan;

talabalarda intellektual qobiliyatni rivojlantirish jarayonini loyihalashning metodik modeli ilmiy va amaliy faoliyat integrasiyasini jadallashtiruvchi mobil kimyoviy masalalarni algoritmik kombinasiyalangan ijodiy-tajriba jarayonida ko‘p tanlovli variantlarda qo‘llash asosida takomillashtirilgan;

kimyo ta’limi jarayonida mezon xususiyatlarini aniqlash va intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning yaxlit jarayoni ilmiy va o‘quv bilishga motivatsiyalovchi individual ta’lim elementlaridan qayta aloqali muhitda kognitiv-ijodiylik darajalarda qo‘llash orqali takomillashtirilgan;

bo‘lajak muhandislaming intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘qitishning real jarayonini metodologik va uslubiy-didaktik ta’minlash komponentlari aqliy potensialni davriy diagnostika qilishning prognoz, reja va tahlil bosqichlarini personal portfolioni yaratish jarayoniga didaktik ta’sirda optimallashtirish asosida takomillashtirilgan;

texnik oliy ta’lim muassasalarida kimyo o‘qitish orqali talabalaming intellektual qobiliyatlarini rivojlanganlik darajalarini baholash mezonlari yaxlit ta’lim makonini vizual yaratish, yaxlit jarayonini kasbiy yo‘nalganlikda tashkil etish,

boshqarish va pedagogik qo‘llab-quwatlash hamda tashkiliy-pedagogik, pedagogik-psixologik va predmetli-didaktik shart-sharoitlarni jadal integratsiyada ta’minlash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

«Polimerlar кимёси» fanini o‘qitishning kredit-modul tizimiga asoslangan elektron dasturiy ta’minoti ishlab chiqilgan;

muhandistlik ta’limida yangi avlod axborot texnologiyalarini joriy etishning metodik tizimi takomillashtirilgan;

muhandistlik ta’limi jarayonida innovatsion elektron darsliklardan foydalanish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

«Polimerlar кимёси» fanini o‘qitishning elektron-didaktik ta’minoti yaratilgan va darslik amaliyotga tadbiq etilgan;

texnik oliy o‘quv yurtlarining kasbga yo‘naltirish bosqichida tabiiy-ilmiy kasbga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyasining samaradorligini monografiya asosida tajriba-sinovda tekshirish tahlili o‘tkazildi;

texnik oliy o‘quv yurtlarida kimyo fani o‘quv qo‘llanmasi takomillashtirilgan tizim asosida o‘qitish metodikasi joriy qilindi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan yondashuvlar va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, emperik o‘rganishlar asosida keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati muhandistlik ta’limida modulli tizim metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladigan metodologik yondashuvlar hamda kimyo fanini o‘rganishdagi shart-sharoitlarni takomillashtirishda foydalanish bilan izohlanadi.

Polimerlar kimyo fanini o‘qitishda talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini faollashtirishga yo‘naltirilgan asosiy yondashuvlar, metodlar yaratilgan. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati muhandislik ta’limida modulli tizim metodikasini takomillashtirish, interfaol ta’lim muhitini yaratishning informatsion-metodik tizimini takomillashtirish xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarida intellektual qobiliyatni rivojlantirish jarayonini loyihalashning ilmiy-metodik asoslari yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarga kimyo fanini o‘qitish orqali intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning yaxlit jarayoni metodologiyasi umumijtimoiy muhitdan foydalanib ilmiy va o‘quv bilishning umumiydan yagonalikka va yagonalikdan chegaraviy umumiylikkacha yo‘naltiriltiruvchi falsafiy zanjirida individual kimyo o‘qitish maqsadiga o‘tishni ta’minlash asosida takomillashtirishga doir takliflardan “Polimerlar kimyosi” nomli darslik ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022 yil 28 sentyabrdagi 89-03- 366-son guvohnomasi). Natijada talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning didaktik ta’minoti boyishiga xizmat qilgan;

texnika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak muhandislaming intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish modelini takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan 60720600 - Materialshunoslik va yangi materiallar texnologiyasi (yarim o’tkazgichlar va lazerlar texnologiyasi) ta’lim yo‘nalishi uchun “Polimer materiallar kimyosi” fani dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (O’zbekiston Resbublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tadbiq etish markazining 2022 yil 18 oktyabrdagi № 02/01-01-52 sonli ma’lumotnoma). Natijada mazkur ishlab chiqilgan Davlat ta’lim standarti talabalaming intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilgan;.

kimyo ta’limi jarayonida mezon xususiyatlarini aniqlash va intellektual qobiliyatlami rivojlantirishning yaxlit jarayonini tashkil etishni konseptual asoslash orqali bo'lajak muhandislaming intellektual imkoniyatlami rivojlantirish metodikasi kimyo o'qitishni modellashtirish, loyihalash va vizuallashtirishda mustaqil ta’limga asoslangan mexanizmini didaktik ta’sirda produktivlashtirish asosida takomillashtirishga doir takliflardan “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti 2021 yildagi 1.17 raqamli «Получение потенциальных дефолирующих активных веществ на основе β-Cl- этилфосфоновый кислоты (за 2019 год)» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining 08.04.2023 yildagi № 23/76-09-13-682 raqamli ma’lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan muhandislaming intellektual imkoniyatlami rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari oshirilgan;

bo’lajak muhandislaming intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda kimyo fanini o‘qitishning real jarayonini metodologik va uslubiy-didaktik ta’minlash komponentlari tayyorgarlik, baholash, korreksiya, portfolioni shakllantirishga asoslangan modulli texnologiyasini kognitiv, shakllantiruvchi va ijodiy bosqichlarda samarali qo‘llashga hamda integrativlikni jadallashtirish asosidagi tavsiyalardan “Quyosh keramikasi” MChJ da 206/14 raqamli “SiC ga asoslangan import keramik plitalarni mahalliy xom-ashyolar asosida ishlab chiqarish” mavzusidagi (2021-2022 yy) ilmiy-tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan“Quyosh keramikasi” MChJning 11.04.2023 yildagi № 1-11/04-23 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan didaktik ta’minot va baholash mezonlari bo'lajak muhandislaming intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami ilmiy-uslubiy 38 ta ish chop etilgan bo‘lib, 1 ta monografiya, OAK tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta, 3 ta xalqaro va 16 ta respublika ilmiy jurnallarida nashr qilingan. Dasturiy mahsulotlar uchun Intellektual mulk agentligidan 1 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 214 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertasiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertasiya mavzusi bo‘yicha muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob’ekti, predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Texnika oliy ta’lim muassasalarida kimyo fanini o‘qitishda talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida texnika oliy ta’lim muassasalarida kimyo fanini o‘qitishda shaxsning umumiy rivojlanish tizimida talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, kimyo fanini o‘qitishda talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning funksional ahamiyati, talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik aspektlari hamda muhandislik yo‘nalishi talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni mazmuni va mohiyati yoritib berilgan.

Intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning yaxlit jarayoni metodologiyasi umumijtimoiy muhitdan foydalanib ilmiy va o‘quv bilishning umumiydan yagonalikka va yagonalikdan chegaraviy umumiylikkacha yo‘naltiriltiruvchi falsafiy zanjirida individual kimyo o‘qitish maqsadiga o‘tishni ta’minlash asosida takomillashtirilgan. “Intellekt”, “intellektual qobiliyatlar” tushunchalari psixologik-pedagogik adabiyotlarda keng tarqalib, ko‘proq qobiliyatlar bilan birgalikda qo‘llaniladi. Atoqli psixolog B.M. Teplov ta’kidlaganidek, “umumiy va maxsus qobiliyatlar inson imkoniyatlarining kengligi va xilma-xilligida hamda u namoyon etgan xususiyatlarning ma’lum birligida namoyon bo‘ladi”.

Imkoniyat - hozircha mavjud bo‘lmagan, lekin ma’lum bir sub’ektning rivojlanish qonuniyatlarining amal qilishi tufayli haqiqatga aylanishi mumkin bo‘lgan hodisadir. Haqiqat allaqachon paydo bo‘lgan va mavjud bo‘lgan narsadir. Shu bilan birga, “imkoniyat” va “haqiqat” o‘zaro bog‘liq tushunchalardir. Bizning tushunchamizga ko‘ra, intellektual qobiliyatlar jarayonning muhim yo‘nalishlari birlashtirilgan ajralmas nuqtadir - bu yo‘nalishlarni uyg‘unlashtirish asosida talabalarning aqlini va qobiliyatlarini rivojlantirish - ko‘pincha o‘zaro bir biridan uzoq, turli tarkibiy qismlari yashiringan qarama-qarshi yo‘nalishdir.

Intellektual qobiliyatlarning rivojlanishi ma’lum bir o‘rgatuvchi jarayonlar, shu jumladan kimyoviy fanlarni o‘rganish jarayonida olingan “xatti-harakatlar repertuari” sifatida namoyon bo‘ladi. Intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning yaxlit jarayoni metodologiyasi umumijtimoiy muhitdan foydalanib ilmiy va o‘quv bilishning umumiydan yagonalikka va yagonalikdan chegaraviy umumiylikkacha yo‘naltiriltiruvchi falsafiy zanjirida individual kimyo o‘qitish maqsadiga o‘tishni ta’minlash asosida takomillashtirilgan.

K. Fisherning mahorat nazariyasi g‘oyasi shunga o‘xshashdir. Unga ko‘ra, intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish iyerarxik tashkil etilgan ta’limning o‘ziga

xos, universal ko‘nikmalari majmuidir.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida kimyo fanini o‘qitishda talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish muammosiga zamonaviy yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Kimyo fanini o‘qitishda talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy tushunchasi shuni ko‘rsatadiki, bir vaqtning o‘zida o‘qituvchi va talabalar faoliyatini o‘zgartirish zarur, bu esa davomiylikni oshirmasdan va mashg‘ulotlarga kuchlanishni ko‘paytirmasdankimyo fanini o‘qitish sifatini oshirishni ta’minlaydi.

Psixologik-pedagogik, metodik ishlar natijalarini umumlashtirib va tahlil qilib, biz intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonining quyidagi ishchi-shaxsning intellektini rivojlantirishning maqsadli jarayoni sifatida, mustaqil, faol harakat qilish, qaror qabul qilish, o‘zgaruvchan hayot sharoitlariga moslashuvchan, kimyo ta’limi sifatini oshirishga qodir bo‘lgan kompetentli mutaxassis tayyorlashga qaratiladi.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida kimyo fanini o‘qitishda talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish muammosini hal qilishda quyidagi muhim jihatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin: birinchidan, talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish vazifasi bo‘lajak muhandisning keyingi kasbiy o‘sishini belgilaydi. Umumiy o‘rta kimyo ta’limi birlamchi tayanch fan bo‘lib, asosiy jarayon oliy ta’limda amalga oshiriladi, uning doirasida talabalar yakuniy bilimlarni oladilar; ikkinchidan, intellektual qobiliyatlarni rivojlanishining samarali va sifatli darajasi ko‘pincha texnika oliy ta’lim muassasalarida kimyo fanini o‘qitishni tashkil etishning mavjud tizimlariga bog‘liq; uchinchidan, jahon ta’lim makoniga integratsiyalashuv jarayoni bo‘lajak mutaxassisning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi yaratilgan taqdirda amalga oshiriladi.

Funksional ahamiyatga ega bo‘lgan masala bo‘yicha turli mualliflarning fikrlarini umumlashtirib, biz intellektual qobiliyatlar kimyo fanini o‘qitishning ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishda muhim rol o‘ynashi, shu bilan birga quyidagita’limiy, madaniy, insonparvarlik, ijtimoiy moslashuv, rivojlantiruvchi, himoya, o‘zgaruvchan, kommunikativ, kasbiy vazifalarni bajarishi haqida xulosa qilishimiz mumkin. Biz aniqlagan turli vazifalar va ularning didaktik ahamiyati 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Kimyo fanini o‘qitishda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonining funksional- didaktik ahamiyati

Jarayonning didaktik qiymati	Ustuvor vazifalar
Kimyoviy bilimlar tizimi, intellektual qobiliyatlarni oshirishga hissa qo‘shadi	Ta’limiy
Tez tahlil qilish, taqqoslash, o‘rganishga yordam beradi, aqliy harakatlarning yangi usullarini (fikrlash uslubi) yaratishga hissa qo‘shadi, aqliy ufqlarni kengaytiradi.	rivojlantiruvchi
Stressdan himoya qiladi, o‘zini o‘zi tashkil qiladi	Himoya

Haqiqatni o‘zgartirishga, ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishga yordam beradi	O‘zgaruvchan
Muloqot vositalari, kommunikatsiya	kommunikativ
Axloqiy munosabatlarni shakllantiradi	insonparvarlik
Ijtimoiy-madaniy makonda moslashishga yordam beradi	ijtimoiy moslashuv
Umumiy madaniyat tarkibiy qismlarining rivojlanishiga yordam beradi	Madaniy
Kompetentli mutaxassisning intellektual va kasbiy sifatlarini rivojlantiradi	Kasbiy

Psixologik-pedagogik, metodik ishlar natijalarini umumlashtirib, muallifning yuqorida bayon etilgan nuqtai nazarlarini tahlil qilib, biz intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonining quyidagi ishchi ta’rifini taklif qilamiz - shaxsning intellektini rivojlantirishning maqsadli jarayoni sifatida, mustaqil, faol harakat qilish, qaror qabul qilish, o‘zgaruvchan hayot sharoitlariga moslashuvchan, kimyo ta’limi sifatini oshirishga qodir bo‘lgan kompetentli mutaxassis tayyorlashga qaratiladi.

Kimyo fanini o‘qitish talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, nafaqat kimyoviy bilimlar, intellektual qobiliyatlar yig‘indisini, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatda talab qilinadigan intellektual - kasbiy fazilatlar tizimini ham ta’minlaydi.

Talabalarning intellektual qobiliyatlarining rivojlanish darajasi, o‘z navbatida, kimyoviy bilimlarni, materialni qabul qilish, o‘zlashtirish va qo‘llashga ta’sir qiladi, shuning uchun kimyoviy materialni qabul qilish turiga ko‘ra tasniflash uchun asos mavjud (2-jadval).

2-jadval

Talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlanish bosqichlari va darajalariga qarab intellektga munosabat turlari

Intellektga munosabat turi	Jarayonning rivojlanish bosqichlari	Talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlanish darajalari	Kimyoni o‘rganishga moyilligiga ko‘ra tipi
Shaxsiy intellekt moslashish vositasidir	1.Moslashuvchan bosqich	Moslashuvchan - mahsuldor	Past qabul qilinuvchi
Shaxsning intellekti shaxs resurslaridan Biridir	2.Evristik bosqich	Predmetli-mahsuldor	O‘rta qabul qilinuvchi
Shaxsiy intellekt - inson kapitali	3. Asosiy bosqich		Qabul qilinuvchi

Shaxsiy intellekt - bu xususiyat va o‘ziga xoslik	4.Tadqiqot bosqichi	Ijodiy mahsuldor	Yuqori qabul qilinuvchi
Shaxsiy intellekt ijtimoiy, kasbiy hamkor	5.Prognostik bosqich		Mutlaq qabul qilinuvchi

Kimyo fanini o‘qitishda talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning yaxlit jarayoni mazmuni tarkibiy qismlariga quyidagi tarkibiy qismlar kiradi: qiymat-maqsadli, predmet-mazmunli, operatsion-dinamik, shaxsiy.

Talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoniga ta’sir qiluvchi barcha tahlil qilingan omillarni uchta yo‘nalishga ajratish mumkin: ijtimoiy-madaniy (jamiyat, madaniyat, texnika, fan va boshqalar ta’siri); shaxsiy (har qanday darajadagi intellektual faoliyatga shaxsiy omillar ta’siri); neyrofiziologik (intellektual rivojlanish shaxsning tug‘ma xususiyatlariga asoslanishi).

Psixologik darajada intellektual faoliyat aqliy jarayonlarning yig‘indisi sifatida belgilanadi, ular quyidagi muhim tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: mantiqiy fikrlash (qoidalarga muvofiq fikrlash); aqliy faoliyat tajribasi; ijodkorlik (yangisini qidirish va yaratish); tanqidiy fikrlash (noto‘g‘ri, xatoni inkor etish orqali yangining asosini ochish).

Intellektual faoliyat ijodiy faoliyatdan ko‘ra kengroq tushunchadir, chunki u talabaning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishni ta’minlaydigan ilmiy, texnik ijodkorlik, bilish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning yaxlit jarayoni metodologiyasi umumijtimoiy muhitdan foydalanib ilmiy va o‘quv bilishning umumiydan yagonalikka va yagonalikdan chegaraviy umumiylikkacha yo‘naltiriltiruvchi falsafiy zanjirida individual kimyo o‘qitish maqsadiga o‘tishni ta’minlash asosida takomillashtirilgan. Psixologik - pedagogik qonuniyatlari, jarayonning funksional ahamiyatini aniqlash, texnika oliy ta’lim muassasalarida kimyo fanlari mazmunini tizimlashtirish, talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini faollashtirish aspektlariga e’tibor berish zarurati mavjud.

Dissertatsiyaning **“Kimyo fanini o‘qitishda talabalarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish jarayonining konseptual asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish yaxlit jarayonini yaratishga metodologik yondashuvlar, talabalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish jarayonini faollashtirish tamoyillari, metodlari hamda kimyo fanini o‘qitishda talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning konseptual asoslari keltirib o‘tilgan.

texnika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak muhandislarning intellektual qobiliyatlarini, fikrlash uslubini rivojlantirishga qaratilgan konseptual metodologik tizim modeliga asoslangan metodik modeli maqsaddan natijaga yo‘naltirilgan bashoratlovchi komponentlar uzviyligida hamda metodologik yondashuvlar va

tamoyillar asosida takomillashtirilgan;

kimyo ta’limi jarayonida mezon xususiyatlarini aniqlash va intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning yaxlit jarayonini tashkil etishni konseptual asoslash orqali bo‘lajak muhandislarning intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish metodikasi kimyo o‘qitishni modellashtirish, loyihalash va vizuallashtirishda mustaqil ta’limga asoslangan mexanizmini didaktik ta’sirda produktivlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Kimyo fanini o‘qitishda talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni yondashuvlar majmuasiga asoslanadi, shu bilan birga tanlangan yo‘nalishlar bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini to‘ldiradi. Ular birgalikda strategiya tuzadilar va muayyan vaziyatda taktikani tanlashni aniqlaydilar. Bizning fikrimizcha, yondashuv murakkab pedagogik vosita bo‘lib, uchta asosiy tarkibiy qismni o‘z ichiga oladi, ular: talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida qo‘llaniladigan asosiy tushunchalar; jarayonni amalga oshirishning dastlabki qoidalari yoki asosiy qoidalari sifatida tamoyillar; kimyo fanini o‘qitishda talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini tuzish metodikasi va usullari. texnika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak muhandislarning intellektual qobiliyatlarini, fikrlash uslubini rivojlantirishga qaratilgan konseptual metodologik tizim modeliga asoslangan metodik modeli maqsaddan natijaga yo‘naltirilgan bashoratlovchi komponentlar uzviyligida hamda metodologik yondashuvlar va tamoyillar asosida takomillashtirilgan; kimyo ta’limi jarayonida mezon xususiyatlarini aniqlash va intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning yaxlit jarayonini tashkil etishni konseptual asoslash orqali bo‘lajak muhandislarning intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish metodikasi kimyo o‘qitishni modellashtirish, loyihalash va vizuallashtirishda mustaqil ta’limga asoslangan mexanizmini didaktik ta’sirda produktivlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Konsepsiya tizimni rivojlantirishni boshqarish quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: tizimni loyihalash, ijodiy faoliyatni tashkil etish va bunday faoliyatni ilmiy-tadqiqot ishlariga yo‘naltirish, bu jarayonda paydo bo‘lgan munosabatlarni tuzatish, rivojlanayotgan sanoat korxonasi potensialidan oqilona foydalanishdan iborat.

Taklif etilayotgan tadqiqot doirasida biz quyidagi metodologik yondashuvlarga tayandik: ijtimoiy-madaniy, kognitiv, amaliyotga yo‘naltirilgan, kompetentli, shaxsni rivojlantiruvchi, tizimli.

Biz ko‘rib chiqqan yondashuvlar nazariy, empirik asos bo‘lib, taniqli mahalliy va xorijiy olimlar, psixologlar, metodistlarning nomlari bilan bog‘liq, ularning shaxs va intellektni rivojlantirishni o‘rganishdagi xizmatlari shubhasizdir. Har bir yondashuv doirasida nazariy va empirik natijalar texnika oliy ta’lim muassasalarida kimyo fanini o‘qitishda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish muammosiga yangi istiqbolni ochadi. texnika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak muhandislarning intellektual qobiliyatlarini, fikrlash uslubini rivojlantirishga qaratilgan konseptual metodologik tizim modeliga asoslangan metodik modeli maqsaddan natijaga yo‘naltirilgan bashoratlovchi komponentlar uzviyligida hamda metodologik yondashuvlar va tamoyillar asosida takomillashtirilgan; kimyo ta’limi jarayonida me-

zon xususiyatlarini aniqlash va intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning yaxlit jarayonini tashkil etishni konseptual asoslash orqali bo‘lajak muhandislarning intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish metodikasi kimyo o‘qitishni modellashtirish, loyihalash va vizuallashtirishda mustaqil ta’limga asoslangan mexanizmini didaktik ta’sirda produktivlashtirish asosida takomillashtirilgan. Ushbu yondashuvlar texnika oliy ta’lim muassasalarida kimyo fanini o‘qitishda talabalarning intellektual qobiliyatlarini tamoyillarda o‘z aksini topadi.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida kimyo fanini o‘qitish jarayonida talabgor bo‘lgan ustuvor tamoyillar: insonparvarlik, fundamentallik, intellektuallashtirish, kasbiylashtirish. Insonparvarlik tamoyili o‘z suverenitetining shaxsini hurmat qilishga, uning ijodiy kuchlariga va imkoniyatlariga ishonishga, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi insonparvarlik aloqalariga yo‘naltirilgan. Fundamentallik tamoyili shaxsiy darajadagi dunyo qiyofasini tashkil etuvchi eng muhim tarkibiy qismlarni aniqlaydigan fundamental kimyoviy bilimlarni shakllantirishga qaratilgan. Kasbiylashtirish tamoyilini amalga oshirish talabaga “texnika oliy ta’lim muassasalari – sanoat korxonasi – jamiyat” integratsiyalashgan ta’lim makoniga faol integratsiyalashish imkonini beradi.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida kimyo fanini o‘qitishda talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini faollashtiradigan yetakchi metodlarga quyidagilar kiradi: bilimlar muhandisligi metodlari (tizimli tahlil, modellashtirish, prognozlash, taqdimot); evristik metodlar (evristik dialog, dialogik o‘zaro ta’sir, qo‘llab-quvvatlash metodlari, tanlov va muvaffaqiyat vaziyatini yaratish); aqliy operatsiyalarni rivojlantirish metodlari (tahlil, sintez, umumlashtirish, taqqoslash, konkretlashtirish, mavhumlashtirish), tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlari, o‘quv vazifalari metodi; ilmiy-tadqiqot metodlari (loyihalar metodi, yozishmalarni olish metodi, shu jumladan tarixiy xarakterdagi kimyoviy tajriba); muammoli metodlar (muammoli savollar metodi, ishlab chiqarishni loyihalashda o‘yin metodi); kognitiv metodlar (kognitiv sxemalar, xaritalar, ko‘rgazmalilik metodi). Kimyo fanini o‘qitishda talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini faollashtirishga yo‘naltirilgan asosiy yondashuvlar, tamoyillar, metodlar o‘zaro bog‘langan, bo‘ysundirilgan.

Talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonining konseptual asoslari uning qimmatli maqsadi - intellektual qobiliyatlari yuqori darajada rivojlangan kompetentli mutaxassisni tayyorlash uchun kimyo fanini o‘qitishdagi muhim o‘zgarishlarni belgilash asosida shakllantirildi. Konseptual asoslar quyidagilarni aks ettiradi: kompetentli mutaxassis tayyorlash uchun texnika oliy ta’lim muassasalarida kimyo fanini o‘qitishning asosiy qonuniyatlari haqidagi g‘oyalar; “intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish” tushunchasining mohiyatini va uning texnika oliy ta’lim muassasalarida kimyo fanini o‘qitish sifatini oshirishdagi rolini tushunish; texnika oliy ta’lim muassasalarida kimyo fanini o‘qitishda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonini yetkazib berish mantig‘i; kimyo fanini o‘qitishda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoniga nisbatan metodologik yondashuvlarni ilmiy-metodik jihatdan ishlab chiqish.

Talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini 1- rasmda keltirib o‘tilgan.



1-rasm. Talabalarning intellectual qobiliyatlarini rivojlantirish modeli

Dissertatsiyaning **“Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalar intellektual qobiliyatini rivojlantirish jarayonini loyihalashning metodik xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobida talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini tashkil etishni loyihalashning metodologik xususiyatlari, kimyo fanini o‘qitish jarayonida bilish kompetentligining talabalar intellektual qobiliyatini rivojlantirishdagi o‘rni, tyexnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘qitish vositalari hamda tyexnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga axborot texnologiyalari asosida yo‘naltirish yoritib berilgan, bo‘lajak muhandislarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda kimyo fanini o‘qitishning real jarayonini metodologik va uslubiy-didaktik ta’minlash komponentlari tayyorgarlik, baholash, korreksiya, portfolioni shakllantirishga asoslangan modulli texnologiyasini kognitiv, shakllantiruvchi va ijodiy bosqichlarda samarali qo‘llashga hamda integrativlikni jadallashtirish asosida mazmunan takomillashtirilgan;

Texnika oliy ta’lim muassasalarida kimyo fanini o‘qitishda talabalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish jarayonini faollashtiradigan yetakchi metodlarga quyidagilar kiradi: bilimlar muhandisligi metodlari evristik metodlar; aqliy operatsiyalarni rivojlantirish metodlari; ilmiy- tadqiqot metodlari; muammoli metodlar; kognitiv metodlar. Kimyo fanini o‘qitishda talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini faollashtirishga yo‘naltirilgan asosiy yondashuvlar, tamoyillar, metodlar o‘zaro bog‘langan.

